



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 172 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education	10
Alimov Jamshid Ravshanovich	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
Yorkulov Zafarjon Bakirovich	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
Dilnura Rustamovna Xamrayeva	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
Rahmatova Nasiba Sobirovna	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	50
Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
Sobir Azizov	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli	57
Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
E. E. Jumayev	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi	65
Jumayeva Gulxan Amrullayevna	
Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida	71
Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li	
TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi	75
Omonova Maftuna Shermatovna	
Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	82
Sevara Alimurodova, Ayubova Saida	
Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish	88
Nurmaxanov Kayrat Erpayizovich	
Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari	95
Poyonova Fazilat Olimovna	
Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash	100
Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova	



Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari	106
Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	110
Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...	114
To'xtayeva Dilrabo Nematovna	
Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari	119
Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna	
The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice	123
Turayev Alimjan	
Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review)	128
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.	
O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar	136
Mamatkulova Maxfuza Kozimovna	
Application of Mechanotherapy Techniques in Oral and Craniofacial Surgical Methodologies (Literature Review)	140
Marufova Farangiz Gayratovna	
Theoretical Foundations for Developing Communicative Competence of Future Doctors	147
Nasimova Shahnoza Ziyodullayevna	
Формирование функциональной грамотности и "гибких навыков" (Soft Skills) у учащихся начальных классов в контексте реализации национальной учебной программы Узбекистана	152
Ю. С. Тажиева	
Talabalarda mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish metodlari	156
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi onim komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari	160
Koyshekenova Tatyana Kenesariyevna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	164
Qo'shaqov Farrux Furqat o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faollikni oshirishning pedagogik usullari	169
Xoldarova F. M.	



TALABALARDA MUSTAQIL TA'LIM OLISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH METODLARI

Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li

Qo'qon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

OCRID: 0009-0008-7105-5232

Taqrizchi: A. Abdullayev

Qo'qon DU dotsenti, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi faol metodlardan foydalanish imkoniyatlari yoritib o'tilgan. Mustaqil ta'limni tashkil etishda talabalarning bilish faolligini kuchaytirish, mustaqil qaror qabul qilish, tahlil qilish, muammolarga yechim topish va o'z faoliyatini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, loyihaviy yondashuv, muammoli o'qitish, keyslar bilan ishlash, raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish va refleksiv tahlil kabi metodlarning mustaqil ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, mustaqil ta'lim faoliyati, ta'lim metodlari, faol o'qitish, loyihaviy yondashuv, keys texnologiyasi, raqamli ta'lim, refleksiya, kasbiy kompetensiya.

Abstract: This article explores the possibilities of using active teaching methods that contribute to the improvement of students' independent learning activities. Particular attention is paid to strengthening students' cognitive engagement, developing their ability to make independent decisions, analyze information, solve problems, and evaluate their own learning activities while organizing independent learning. Furthermore, the article highlights the role of project-based learning, problem-based learning, case-study technology, the use of digital educational tools, and reflective analysis in enhancing the effectiveness of independent learning.

Key words: independent learning, independent learning activities, teaching methods, active learning, project-based learning, case-study technology, digital education, reflection, professional competence.

Аннотация: В данной статье рассматриваются возможности использования активных методов обучения, способствующих совершенствованию деятельности студентов по самостоятельному обучению. Особое внимание уделяется развитию познавательной активности студентов, формированию у них навыков самостоятельного принятия решений, анализа информации, решения проблем и оценки собственной учебной деятельности в процессе организации самостоятельного обучения. Кроме того, раскрывается роль проектного обучения, проблемного обучения, кейс-технологии, использования цифровых образовательных средств и рефлексивного анализа в повышении эффективности самостоятельного обучения.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, деятельность по самостоятельному обучению, методы обучения, активное обучение, проектное обучение, кейс-технология, цифровое образование, рефлексия, профессиональная компетентность.

KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoitida oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'limni samarali tashkil etish, talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 10-sentabrdagi 20-2018-sonli buyrug'iga ilova qilingan 3076-son¹ Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining o'quv yuklamasi hajmini hisoblashning vaqt me'yorlarida talabalarning mustaqil ish turlari me'yorlari o'z aksini topgan bo'lib, mazkur hujjatda mustaqil ish turlari va ularni rejalashtirishga doir talablar belgilangan ^[1].

1 <https://lex.uz/ru/docs/-3967278>



Zamonaviy ta'lim muhiti talabalarning bilish faoliyatini ularning intellektual salohiyati bilan uyg'un holda rivojlantirishni taqozo etadi. Bu esa ta'lim mazmunini ilmiy asosda takomillashtirish, uni talabalarning hayotiy va kasbiy tajribasi bilan bog'lash hamda ta'lim jarayonini tashkil etishda pedagogik va psixologik omillarni kompleks hisobga olishni talab qiladi. Ana shunday yondashuv mustaqil ta'lim samaradorligini oshirish, talabalarning tahliliy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda ularning ilmiy izlanishlarga qiziqishini kuchaytirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagog olimlar mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonini faollashtirishda loyihalash va modulli ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish masalasini umumiy muammo sifatida qaraydilar. Bu boradagi ishlarning bir qismida talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini tashkil etishga shaxs nuqtayi nazaridan yondashish ko'zga tashlanadi. Bunda faol metodlar pedagogik kasbini tanlash va egallash jarayonida jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiquvchi shaxsni shakllantirishda mustaqil ta'lim muhim omil sifatida qaralgan. Mustaqil ta'lim tushunchasi turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha izohlangan. Ayrim olimlar uni talabani o'qituvchi bevosita ishtirokisiz bajaradigan o'quv faoliyati sifatida talqin qilsalar, boshqalar mustaqil ta'limni shaxsning o'z-o'zini boshqarishi, o'zini rivojlantirishi va kasbiy faoliyatga tayyorlanishi bilan bog'laydilar.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar N. A. Muslimov, R. X. Jo'rayev, S. T. To'rg'unov va boshqalarning qarashlarida mustaqil ta'lim bilimlarni o'zlashtirish, tushunchalarni rivojlantirish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan maqsadli, tizimli va avtonom faoliyat sifatida ifodalanadi [2].

Mustaqil ta'lim talabani o'quv faoliyatining subyektiga aylantirishi, unda o'z-o'zini boshqarish va kasbiy rivojlanish mexanizmlarini shakllantirishi ta'kidlangan. O. A. Qo'ysinov mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy va metodik asoslarini tadqiq etib, uni talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantiruvchi muhim pedagogik jarayon sifatida talqin qiladilar [3]. Mualliflar mustaqil ta'lim mazmunini tanlash, uni tashkil etish shakllarini belgilash, talabalar faoliyatini nazorat qilish va baholash masalalariga alohida e'tibor qaratganlar.

Xorijiy pedagogik tadqiqotlarda talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyati "self-directed learning", "learner autonomy" va "self-regulated learning" tushunchalari asosida o'rganilgan. M. Noulz mustaqil ta'limni talabani o'z ta'lim ehtiyojlarini aniqlashi, maqsad belgilashi, ta'lim resurslarini tanlashi, o'qish strategiyalarini ishlab chiqishi va natijalarni baholashi bilan bog'laydi [4].

A. Xolek esa ta'lim oluvchi avtonomligini o'z ta'limi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyati sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, avtonom talaba ta'lim maqsadlari, mazmuni, metodlari, vaqti va natijalarini belgilashda faol ishtirok etadi [5]. Tadqiqot mobaynida xorijiy olimlarning ilmiy manbalari o'rganilib, quyidagicha qiyosiy tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval: Xorijiy olimlarni ilmiy manbalarining qiyosiy tahlili

Olimlar	Asosiy g'oyasi	Mustaqil ta'lim metodlariga qo'shgan hissasi
M. Knowles	O'zini o'zi yo'naltirib o'qish	O'quv ehtiyojini aniqlash, maqsad qo'yish, manbalarni tanlash, strategiya ishlab chiqish va natijani baholash
H. Holec	Ta'lim oluvchi avtonomligi	Talabani ta'lim maqsadi, mazmuni, metodi, vaqti va natijasi uchun mas'uliyati
D. Little	Avtonom o'quvchi	Refleksiya, tanqidiy fikrlash va o'quv jarayonini ongli boshqarish
B. Zimmerman	O'zini o'zi boshqarib o'qish	Rejalashtirish, faoliyatni kuzatish, o'z-o'zini baholash va refleksiya
P. Pintrich	O'zini boshqarishning kognitiv-motivatsion modeli	Maqsad qo'yish, motivatsiya, metakognitiv nazorat va o'quv strategiyalari
P. Candy	Uzluksiz va avtonom ta'lim	Talabani mustaqil qaror qabul qilishi, tanqidiy fikrlashi va umrbod ta'lim olishi

Adabiyotlar tahlilidan aniqlandiki, talabalarda mustaqil ta'limni tashkil etishga oid ilmiy izlanishlar yetarlicha amalga oshirilgan bo'lsa-da, talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini an'anaviy yondashuvlar asosida tashkil etish bilan bir qatorda, muayyan faollashtiruvchi va motivatsion jarayonni tashkil etuvchi metodlar asosida rivojlantirish hamda uning samaradorligini baholash mezonlari kesimida metodik ta'minotni takomillashtirishga oid tadqiqotlarni rivojlantirish talab etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish maqsadida ta'limning zamonaviy yondashuvlari va ularni ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari o'rganildi. Metodologik asos sifatida kompetensiyaviy, talabani mustaqil ta'lim olish faoliyatiga yo'naltirilgan va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarga



amal qilindi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, sintez, umumlashtirish va tizimlashtirish kabi nazariy metodlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida talabalarning mustaqil ta'limga tayyorlik holati bir nechta mezonlar asosida o'rganildi. Shuningdek, ularning o'qishga bo'lgan ichki qiziqishi, mustaqil vazifalarni bajarish qobiliyati, axborot manbalarini tanlash va tahlil qilish ko'nikmasi, o'quv faoliyatini rejalashtirish va erishilgan natijalarni tanqidiy baholay olishiga alohida e'tibor qaratildi. Shu nuqtayi nazardan, mustaqil ta'lim auditoriyadan tashqarida bajariladigan oddiy topshiriqlar yig'indisi emas, balki talabani bilish faolligini kuchaytirishga yo'naltirilgan pedagogik hamkorlik jarayoni sifatida talqin etildi.

Mustaqil ta'lim olish faoliyatini baholashda faqat yakuniy natija emas, balki talabani ish jarayoni ham hisobga olindi. Bunda vazifani tushunish, ish rejasini tuzish, manbalardan foydalanish, mustaqil qaror qabul qilish, natijani taqdim etish va o'z faoliyatini baholash kabi ko'rsatkichlar asos qilib olindi. Bunday yondashuv talabani faqat baho olishga emas, balki o'z ta'limiy natijasi uchun mas'uliyatni his qilishga yo'naltiradi.

A. Sh. Musayevning "Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda ma'ruza tinglashning ahamiyati" maqolasida mustaqil ta'lim talabani o'qituvchi bilan birgalikdagi maqsadli faoliyati sifatida talqin qilinadi; unda talabalarning o'quv motivatsiyasi, axborotni qayta ishlash, o'z-o'zini nazorat qilish va baholash ko'nikmalari haqida fikr yuritiladi [6].

Mustaqil ta'limni tashkil qilish hozirda talabalar orasida mustaqil ta'limni tashkil etishdagi mavjud muammolarni hal qilishga yordam beradi. Hozirda ta'lim oluvchilar orasida mustaqil ta'limni tashkil etishdagi muammolar quyidagilardan iborat:

- vazifalarni hamma talabalarning bajarmasligi;
- talabalarda o'ziga bo'lgan ishonchning yo'qligi;
- talabalar nutq madaniyatining yaxshi rivojlanmagani;
- talabalarni baholashda vaqtning yetishmasligi.

Mustaqillik – shaxsning alohida xususiyati, layoqati, faolligi, diqqatini jamlash qobiliyati, qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida bor kuchini sarf etish kabi xususiyatlar birligidir [7].

Ta'lim jarayonida faol metodlardan foydalanish darsda o'qituvchining vaqtdan unumli foydalanishiga hamda talabalarning o'z ustida mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantirishga yordam beradi. Ayniqsa, talabalarda mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirishda muammoli ta'lim, tadqiqot va kuzatuv, adabiyotlar bilan ishlash va loyiha metodlaridan foydalanish yuqori samaradorlikni berishi aniqlandi. Mazkur metodlar maqsad va vazifalarga ega (2-jadval).

2-jadval: **Mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantiruvchi faol metodlar**

№	Metodlar nomi	Maqsad va vazifasi
1	Muammoli ta'lim metodi	Talabalarda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mantiqiy va tanqidiy fikrlashni shakllantirish hamda mustaqil ravishda oqilona yechim topish ko'nikmalarini rivojlantirish.
2	Tadqiqot va kuzatuv metodi	Amaliy va ilmiy jarayonlarni bevosita kuzatish, olingan ma'lumotlarni umumlashtirish, sabab-oqibat aloqadorligini aniqlash va tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish.
3	Adabiyotlar bilan ishlash metodi	Ilmiy va o'quv manbalarini mustaqil qidirish, tahlil qilish, konspektlashtirish, qiyosiy solishtirish va mavzu bo'yicha nazariy xulosalar chiqarish
4	Loyiha metodi	Muayyan amaliy yoki nazariy muammoni hal etishga qaratilgan kompleks topshiriqlarni mustaqil yoki jamoada rejalashtirish, tadqiq qilish va yakuniy loyiha sifatida taqdim etish.

Tadqiqot ishi jarayonida "Pedagogik texnologiya" fanidan talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini aniqlash uchun og'zaki suhbat asosida so'rovnoma o'tkazildi. Talabalar bilan o'tkazilgan suhbat natijalari juda muhim bir muammoni yuzaga chiqardi: 60 % talaba mustaqil ta'limni shunchaki "majburiy topshiriq bajarish" (test, prezentatsiya, uy vazifasi) deb tushunadi. Bu talabalarda mustaqil ta'lim olishga bo'lgan ichki motivatsiya va ijodiy-tadqiqotchilik faoliyatining pastligini ko'rsatadi. So'rovnoma ushbu ko'rsatkichlarni chuqurroq ochib berish va keyingi bosqichlarda talabalarning mustaqil fikrlashini baholash uchun og'zaki suhbat savollari 3 ta asosiy mezonga bo'lib tuzildi: Talabani mustaqil ta'limning asl mohiyatini qanday tushunishi va unga bo'lgan munosabatini aniqlovchi savollar: Mustaqil ta'lim siz uchun shunchaki joriy va oraliq nazoratga tayyorgarlikmi



yoki o'z ustingizda ishlash vositasimi? "Pedagogik texnologiya" fanidan mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda asosiy maqsadingiz nimadan iborat? Agar fandan mustaqil ta'lim uchun baho qo'yilmasa edi, baribir ushbu topshiriqlarni bajargan bo'larmidingiz? Nima uchun? Sizningcha, bo'lajak o'qituvchi uchun mustaqil bilim olish ko'nikmasi nega zarur? Talabaniq mustaqil ta'lim jarayonida qaysi metod va manbalardan foydalani-shini aniqlovchi savollar: Mustaqil topshiriqni, masalan, taqdimot yoki referatni tayyorlashda internetdagi tayyor manbalarni (ChatGPT yordamida taqdimot tayyorlash) ko'chirib olish bilan cheklanmasizmi yoki manbalarni tahlil qilasizmi? "Pedagogik texnologiya" fanidan mustaqil ta'lim topshirig'ini bajarishda o'zingiz ijodiy yondashuv yoki muammoli yechim taklif qilganmisiz? Mustaqil o'rganish jarayonida mavzu tushunarsiz bo'lsa, birinchi navbatda qanday yo'l tutasiz? Domla bergan adabiyotlardan tashqari, o'zingiz mustaqil ravishda qo'shimcha ilmiy manbalar, maqolalar yoki xorijiy tajribalarni qidirib ko'rasizmi?

Talabaniq o'z-o'zini baholashi va mustaqil ta'limni takomillashtirish bo'yicha fikrini o'rganishga doir savollar: Mustaqil ta'limni tashkil etishda pedagogik vaziyat, dars ishlanmasini tuzish kabi vazifalarni afzal ko'rgan bo'lardingiz? Mustaqil ta'lim topshirig'ini bajarib bo'lgach, "Men bu mavzuni qay darajada o'zlashtirdim va buni amaliyotda qo'llay olamanmi?" deb o'z-o'zingizga savol berasizmi? "Pedagogik texnologiya" fani bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlari sizga real dars jarayonini loyihalashtirishda qanchalik yordam bermoqda? O'tkazilgan og'zaki suhbat tahlili shuni ko'rsatdiki, respondentlarning 60 foizida mustaqil ta'limga nisbatan reproduktiv, tayyor namunaga ergashish yondashuvi ustunlik qiladi. Talabalar mustaqil ta'limni asosan auditori-yadan tashqari vazifa bajarish, test yechish va oraliq nazorat topshiriqlari uchun taqdimot tayyorlashdan iborat deb hisoblaydi. Bu esa talabalarda mustaqil ta'limning tadqiqotchilik, ijodiy va produktiv komponentlarini rivoj-lantirishga qaratilgan maxsus pedagogik shart-sharoitlar va muammoli-loyihaviy topshiriqlar tizimini joriy etish zaruratini asoslab beradi. "Pedagogik texnologiya" fani bo'yicha tadqiqot va kuzatuvga asoslangan mustaqil ta'lim topshirig'ini quyidagicha tavsiya etish mumkin.

Topshiriq: "Darsda interaktiv metodlarning samaradorligini xronometraj va kuzatish" Topshiriqning maqsadi: mahoratli o'qituvchilarning dars jarayonini kuzatish orqali pedagogik texnologiyalar va metodlarning vaqt taqsimoti hamda talabalar faolligiga ta'sirini tahlil qilish. Topshiriq mazmuni: bir nafar tajribali o'qituvchining 1 soatlik dars jarayoniga kirib, "Kuzatuv xaritasi"ni to'ldirish. Darsning qaysi bosqichida qaysi interaktiv metod qo'llanilganini va unga qancha vaqt ajratilganini qayd etish. Metod qo'llangan paytda o'quvchilarning jalb etil-ganlik (e'tibor) darajasini (yuqori, o'rta, past) kuzatib, baholash. Yakuniy jarayon: analitik kuzatuv xaritasi va dars davomida foydalanilgan metodlar samaradorligi yuzasidan xulosalar tayyorlash.

Mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan metodlarni tizimli qo'llash talabalarning mustaqil bilim olish faolligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Talabalarda axborot manbalari bilan mustaqil ishlash, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, o'quv materiallarini tanqidiy baholash, o'z ta'lim trayektoriyasini rejalashtirish hamda o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalari shakllandi.

XULOSA

Mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirishda qo'llanilgan faol metodlar talabalarning kasbiy kompetent-ligini shakllantirish va ularni uzluksiz ta'limga tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, muammoli ta'lim, loyiha metodi, tadqiqot va kuzatuv metodlaridan mustaqil ta'lim topshiriqlarida tizimli foydalanish talabalarning mustaqil bilim olishga bo'lgan qiziqishi, tanqidiy fikrlashi, o'z-o'zini baholashi hamda kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshiradi. Ayniqsa, tadqiqot va kuzatuv metodlari asosida tashkil etilgan mustaqil ta'lim topshiriqlari talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish, pedagogik jara-yonlarni tahlil qilish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, mustaqil ta'lim jarayonini raqamli ta'lim muhiti, refleksiv baholash va interfaol metodlar bilan uyg'unlashtirish uning samaradorligini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-3967278>
2. Muslimov N. A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2007. – 315 b.
3. Muslimov N. A., Qo'ysinov O. A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi: monografiya. – Toshkent: Fan, 2009. – 80 b.
4. Knowles M. S. Self-Directed Learning: A Guide for Learners and Teachers. – New York: Association Press, 1995.
5. Holec H. Autonomy and Foreign Language Learning. – Oxford: Pergamon Press, 1990.
6. Musayev A. Sh. "Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda ma'ruza tinglashning ahamiyati". Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 2022-yil, № 12, 65–68-betlar.
7. Jo'rayeva N. O. Ta'lim jarayonida mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish bo'yicha ayrim ko'rsatmalar. Ta'lim va innovat-sion tadqiqotlar, 2021-yil, № 3, 170–176-betlar.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.